

T A S D I Q L A Y M A N
“O‘zavtosanoat” AJ
Boshqaruv raisi
_____U.Rozukulov
2025-yil “_____ - _____”

**“O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatining turli masalalar bo‘yicha
yig‘ilish**

BAYONNOMASI

2025-yil “_____ - _____”

Toshkent sh.

Raislik qildi:

U.Rozukulov - Boshqaruv raisi
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi mas’ul xodimi M.Boxodirov,
O‘zbekiston Respublikasi

Ishtirok etishdi:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo‘lim
boshlig‘i F.Mahbubov, O‘zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Boshqaruv samaradorligi agentligi mas’ul
xodimi K.Abdurahmonov, Boshqaruv
raisining o‘rinbosarlari, tarkibiy
bo‘linmalar rahbarlari (ro‘yxat
bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil
21-iyuldagi va 2-sentabrdagi 07-15-18-son topshiriqlariga asosan
“O‘zavtosanoat” AJda o‘tkazilgan iqtisodiy o‘qish to‘g‘risida**

*(Rozukulov, Rahmonov, Muxamedov, Turayev, Xidoyatov, Saxapov,
Xakimov, Xodjayev, Abduraxmanov, Nuriddinova, Karimov, Akilov,
Raximov, Xusainov, Yusupov, Olimov, Bekchanov, Karayev, Jurayev,
Yusupov, Alimov, Gafarov, Kadirov, Alimov, Zohidov, Atabayev, Rahmonov,
Rozukulov)*

Kun tartibidagi masala yuzasidan, Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i X.Nuriddinova so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-iyuldagi va 2-sentabrdagi 07-15-18-son topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-5189-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldagi "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 467-son va 2020-yil 9-dekabrda "Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 775-son qarorlariga asosan, "O'zavtosanoat" AJ Boshqaruvi raisi o'rinbosarlarining ham shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish, vazifalari va vakolatlarini aniq belgilash, shuningdek, ularning faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari orqali baholab borish belgilanganligini bayon qildi.

Shuningdek, Ishlab chiqarishni iqtisodiy prognozlash boshqarmasi boshlig'i so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarini, 2025-yil yanvar-sentabr va 2025-yil uchun maqsadli iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishilishini ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi yuzasidan taqdimoti bilan yig'ilish qatnashchilarini tanishtirdi.

Taqdimotda joriy yil holati, 2025-yil yanvar-sentabr va yil yakuni bilan belgilangan maqsadli iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishilishini ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi, mavjud muammo va takliflar, tarmoqning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari mavzusidagi tahliliy ma'lumotlar ko'rib chiqildi va mas'ul tarkibiy bo'linmalarning asosiy faoliyat yo'nalishlari ko'rsatkichlarini bajarilishini ta'minlash haqida yig'ilish ishtirokchilariga tushuntirishlar berdi.

Yig'ilish davomida kun tartibidagi masalalar yuzasidan "O'zavtosanoat" AJ Boshqaruvi raisi U.Rozukulov so'zga chiqib, "O'zavtosanoat" AJ Boshqaruvi raisi o'rinbosarlarining va Jamiyatning faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlarining 2025-yil III chorak uchun belgilangan maqsadlarning iyul-avgust oylarining ijrosi bo'yicha erishilgan natijalar va yo'l qo'yilgan kamchiliklardan xulosa chiqarish hamda III chorak uchun belgilangan maqsadlarga va 2025-yil uchun maqsadli iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishilishini ta'minlash bo'yicha mas'ul rahbarlarga ko'rsatmalar berdi.

Kun tartibidagi masalalar muhokamasidan so'ng, yig'ilish qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-iyuldagi va 2-sentabrdagi 07-15-18-son topshiriqlari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boshqaruv raisi o'rinbosarlari va tarkibiy bo'linmalar rahbarlari:

- 2025-yil uchun 9 oylik va yil yakuni bilan belgilangan maqsadli iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishilishini;

- "O'zavtosanoat" AJ Boshqaruvi raisi o'rinbosarlarining va Jamiyatning faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlari 2025-yil III chorak uchun belgilangan maqsadlarning ijrosi yuzasidan joriy holatga tasdiqlangan ma'lumotlarni har oy yakuni bilan Xodimlar bilan ishlash boshqarmasiga taqdim qilinishini;

- 2025-yil III chorak uchun belgilangan maqsadlarning avgust oyi holatiga ijrosi bajarilmasdan qolish xavfi bo'lgan ko'rsatkichlar yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, uch kun muddatda Xodimlar bilan ishlash boshqarmasiga taqdim qilinishini;

- "O'zavtosanoat" AJ Boshqaruvi raisi o'rinbosarlarining va Jamiyatning faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlari 2025-yil III chorak uchun belgilangan maqsadlarni bajarilishini ta'minlasin.

3. Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi, "O'zavtosanoat" AJ Boshqaruvi raisi o'rinbosarlarining hamda Jamiyatning faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlari bajarilishi yuzasidan ma'lumotlarni chorak yakuni bilan belgilangan tartibda samaradorlik.uz platformasiga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi ta'minlansin.

4. Ma'muriyat va hujjatlar ijrosi nazorati boshqarmasi, ushbu bayonnomani tegishli tarkibiy tuzilmalarga yetkazilishi ta'minlansin.

5. Mazkur bayonnoma ijrosini nazorat qilish Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari zimmasiga yuklansin.